



2023- yil mart


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA

ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA YIG‘MA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % da

Mart oyida yig‘ma INI


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning martiga nisbatan



Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasi o‘lchovi makroko‘rsatkichlarning bazaviy to‘plami asosida amalga oshirilib, ularning orasida **iste‘mol narxlari indeksi (INI)** iste‘mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallaydi.

2023- yilning mart oyida oylik INI **101,0 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **102,4 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (o‘tgan yilning martiga nisbatan) ushbu ko‘rsatkich **111,7 %** darajasida shakllandi.


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI, % da

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan.

INIning shakllantirishga “Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.

2023- yilning fevral oyida ayrim davlatlardagi* yig‘ma INI, % da



* milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma‘lumotlar asosida



MART OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da

2023- yilning martida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **101,2 %** ni, xizmatlar bo'yicha esa – **100,4 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich mos ravishda **102,6 %** va **101,6 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko'rsatkich **112,6 %** va **108,4 %** ni tashkil etdi.



TOVARLAR

XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning martiga nisbatan




Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi. Har oyda **10 mingdan ortiq** savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narx kotirovkalari qayd etiladi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan.



● oziq-ovqat mahsulotlari ● nooziq-ovqat mahsulotlar ● xizmatlar



2023- yilning martida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qisqa muddatli INI **101,6 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha **100,7 %** ni, xizmatlar bo'yicha **100,4 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-martida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda **103,4 %**, **101,6 %** va **101,6 %** ga yetdi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **114,6 %** va **110,2 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,4 %** darajasida qayd etildi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da



MART

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning martiga nisbatan




YIG'MA INI



TOVARLAR



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o'zgarishlarini hisobga olmaganda 2023- yilning fevralidagi qisqa muddatli INI **100,8 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko'rsatkich **101,5 %** darajasida, 2022- yilning martiga nisbatan esa – **112,6 %** darajasida qayd etildi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

mart o'tgan oyga nisbatan


Ta'siri, f.d.



2023- yilning martida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining oylik yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **0,69 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta'sirining **68,0 %** i to'g'ri keldi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'siri ulushi umumiy ta'sir darjasida **22,8 %** ni (ta'sir **0,23 f.d.**) va xizmatlar ta'siri ulushi esa **0,9 %** ni (ta'siri **0,09 f.d.**) tashkil etdi.

Umumiy ta'sir darajasidagi uushi, % da



INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.


Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI


Ta'siri, f.d.

Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da

mart o'tgan yilning dekabriga nisbatan



mart o'tgan yilning martiga nisbatan




■ Oziq-ovqat mahsulotlari ■ Nooziq-ovqat mahsulotlar ■ Xizmatlar

2023- yilning I choragida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **1,45 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sir darajasining **60,7 %** i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlarning umumiy ta'sir darajasidagi ulushi **23,8 %** ni (ta'siri **+0,57 f.d.**) tashkil etdi. Xizmatlar narxlari o'zgarishining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past darajada bo'lib, **0,37f.d. (15,5 %)**ga yetdi. Yillik nisbatdagi yig'ma INI tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy ta'sir darajasining **53,1 %** i, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **30,2 %** va xizmatlar hissasiga **16,7%** to'g'ri keldi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-sonli qarori** bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”ning 36-bandi ijrosini ta‘minlash yuzasidan, 2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a‘zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste‘mol narxlari indeksini (INI) to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi.

mart oyida o‘tgan oyga nisbatan*


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari



V. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish




VI. Sog‘liqni saqlash



* Statistika maqsadlarida 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

mart oyida o'tgan oyga nisbatan


VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa




IX. Dam olish, sport va madaniyat



X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar




XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar




2023- yilning martida “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) bo‘limi bo‘yicha oylik qisqa muddatli INI **102,8 %** ni, “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi bo‘yicha **101,6 %** ni, “Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari” (II), “Sog‘liqni saqlash” (VI) va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar” (XIII) **101,3 %** ni tashkil etdi. Boshqa bo‘limlar bo‘yicha indeks kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (**101,0 %**) past bo‘ldi.

mart oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari




V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish




VI. Sog'liqni saqlash



VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa




mart oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Davomi


IX. Dam olish, sport va madaniyat




X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar



XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



IZOH: O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi

2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilingan.

2023- yil yanvar-mart oylari uchun INI “Transport” (VII) (**102,9 %** ga **101,5 %**) va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar” (XIII) (**102,8 %** ga **102,7 %**)

bo'limlaridan boshqa deyarli barcha bo'limlarda o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan past darajada bo'ldi.

O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

mart oyida o‘tgan yilning martiga nisbatan

| I. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR | | II. SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI | | III. KIYIMLAR VA POYABZAL | |
|--|--------------|---|--------------|---------------------------|--------------|
| 2021- yil | 113,9 | 2021- yil | 110,2 | 2021- yil | 107,3 |
| 2022- yil | 114,5 | 2022- yil | 109,3 | 2022- yil | 106,2 |
| 2023- yil | 114,3 | 2023- yil | 110,5 | 2023- yil | 108,5 |

| IV. TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI | | V. UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH | | VI. SOG‘LIQNI SAQLASH | |
|---|--------------|---|--------------|-----------------------|--------------|
| 2021- yil | 108,0 | 2021- yil | 109,0 | 2021- yil | 113,5 |
| 2022- yil | 102,7 | 2022- yil | 108,6 | 2022- yil | 108,9 |
| 2023- yil | 105,0 | 2023- yil | 111,6 | 2023- yil | 116,2 |

| VII. TRANSPORT | | VIII. AXBOROT VA ALOQA | | IX. DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT | |
|----------------|--------------|------------------------|--------------|-----------------------------------|--------------|
| 2021- yil | 110,1 | 2021- yil | 103,5 | 2021- yil | 107,6 |
| 2022- yil | 112,7 | 2022- yil | 103,0 | 2022- yil | 109,6 |
| 2023- yil | 111,2 | 2023- yil | 101,2 | 2023- yil | 114,2 |

| X. TA‘LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR | | XI. RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI | | XII. SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR | |
|--------------------------------|--------------|---|--------------|--|--------------|
| 2021- yil | 103,4 | 2021- yil | 116,3 | 2021- yil | 104,6 |
| 2022- yil | 111,3 | 2022- yil | 115,3 | 2022- yil | 100,5 |
| 2023- yil | 103,0 | 2023- yil | 123,4 | 2023- yil | 103,8 |

| XIII. MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR | |
|--|--------------|
| 2021- yil | 111,3 |
| 2022- yil | 110,1 |
| 2023- yil | 114,0 |

2023- yilning martida yillik nisbatdagi INI “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘lim (-0,2 foiz bandga), “Transport” (VII) bo‘lim (-1,5 foiz bandga), “Axborot va aloqa” (VIII) bo‘lim (-1,8 foiz bandga) va “Ta‘lim sohasidagi xizmatlar” (X) bo‘limi bo‘yicha o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan past darajada kuzatildi.


“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % DA

mart oyida o‘tgan oyga nisbatan


Donli ekinlar
va yorma mahsulotlari



Go’sht va go’sht
mahsulotlari




Baliq va boshqa
dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa
sut mahsulotlari va tuxum



Yog‘lar va moylar




Mevalar va yong‘oqlar



Sabzavotlar, ildizmevalilar
va dukkaklilar



Shakar, qandolat
mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat
mahsulotlari va boshqa
oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar



2023- yilning mart oyida “Yog‘lar va moylar” guruhi bo‘yicha qisqa muddatli INI 100,0 % lik chegaradan past (**99,6 %**) darajada qayd etildi.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar narxlarining mart oyidagi mavsumiy ko‘tarilishi joriy yilning dastlabki ikki oyidagiga nisbatan sezilarsiz bo‘ldi. Shu tariqa, 2023- yilning mart oyida ushbu guruhda qisqa muddatli INI **104,7 %** ni tashkil etdi (joriy yilning yanvar va fevralida **107,7 %** va **105,1 %** ni tashkil etgan).

Meva-sabzavot hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar guruhlari-dan boshqa bo‘limning aksariyat guruhlari-da 2023- yilning martida qisqa muddatli INI bo‘lim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich-dan past bo‘ldi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

mart oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Go‘sh t mahsulotlari



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Yog‘lar va moylar



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Mevalar va yong‘oqlar



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil

Spirtsiz ichimliklar



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil



“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi bo‘yicha INI 2023-yilning I choragi-da asosan meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy oshishi ta‘sirida shakllandi. Shunday qilib, bo‘lim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan baland narx indeksi mevalar va yong‘oqlar (**105,7 %**) hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilarda (**118,5 %**) qayd etildi.

Go‘sh t, sut va boshqa sut mahsulotlari va tuxum guruhlaridan boshqa barcha guruhlarda 2023- yilning yanvar-martida INI o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan past darajada bo‘ldi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

mart oyida o‘tgan yilning martiga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2021- yil 2022- yil 2023- yil



Yog‘lar va moylar



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Mevalar va yong‘oqlar



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil


Spirtsiz ichimliklar








2021- yil 2022- yil 2023- yil

2023- yilning martida “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari”, “Yog‘lar va moylar”, “Mevalar va yong‘oqlar”, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhlarida yillik nisbatdagi INI 2022- yilning martidagi mos ko‘rsatkichga qaraganda past darajada bo‘ldi. Shu bilan birga, joriy yilning martida mevalar va yong‘oqlar narxlarining o‘rtacha darajasi o‘tgan yilning mos oyidagi ko‘rsatkichdan pastligicha qoldi.

Guruch va guruch oqshog'i








Bug'doy uni



Suyakli mol go'shti





Qo'y go'shti




Sut








Tuxum



Kungaboqar yog'i




Shakar




■ o'tgan oyga nisbatan
 ■ o'tgan yilning dekabriga nisbatan
 ■ o'tgan yilning martiga nisbatan

2023- YILNING MARTIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




o'tgan yilning martiga nisbatan



Joriy yilning martida saqlash muddati nisbatan uzoqroq bo'lgan ayrim turdagi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida pasayish kuzatildi. Shunday qilib, lavlagi, kartoshka, sabzi va piyoz bo'yicha qisqa muddatli INI 100,0 % lik chegaradan past (tebranishlar diapazoni **97,3-98,6 %** ni tashkil etdi) bo'ldi. Bodring, pomidor, bulg'or qalampiri narxlarining o'sishi aksincha, tezlashib, bu asosan narx o'zgarishlarining mavsumiy xususiyatlari va ushbu mahsulotlarni issiqxona sharoitida yetishtirishning murakkabliklari bilan bog'liqdir. Qator holatlarda, masalan, karam narxining oshishi bozorga yangi hosilning chiqarilishi bilan izohlanadi.

Yanvar va fevral oylarida sezilarli oshishlardan so'ng joriy yilning mart oyida piyoz narxi barqarorlashdi va barcha hududlarda pasaydi. Shu bilan birga, 2023- yilning I choragida ushbu mahsulot bo'yicha INI **156,8 %** (yanvar-fevral oyida **159,0 %**)ni tashkil etdi. Kartoshka, karam, sarimsoq, olma, limon, baqlajon 2023- yilning martida yillik nisbatda narxlar pasaygan mahsulotlar qatoridan joy oldi. Ularning 2022- yilning martiga nisbatan INI **58,9-93,8 %** atrofida bo'ldi.

2023- YIL MART OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da



- Spirtsiz ichimliklar
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari
- Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
- Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar
- Mevalar va yong'oqlar
- Yog'lar va moylar
- Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
- Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
- Go'sht mahsulotlari
- Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Meva-sabzavot mahsulotlari narxining oshishi 2023- yilning mart oyidagi qisqa muddatli yig'ma INI ga jami **0,31 f.d.** ta'sir etdi. Donli ekinlar va yorma mahsulotlari, go'sht, sut mahsulotlari va tuxum, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar narxlari o'zgarishi hisobiga yig'ma ko'rsatkichni qo'shimcha **0,29 f.d.** o'sishiga ta'sir qildi.

2023- yilning yanvar-martidagi yig'ma INI tuzilmasida yuqori ta'sir darajasi meva-sabzavot mahsulotlariga (jami ta'sir **+1,01 f.d.**) tegishli bo'ldi.


2023- yilning martida yillik nisbatdagi INI asosan donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi (**+2,5 f.d.**).

“SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II), % DA


SPIRTLII ICHIMLIKLAR

| mart | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning martiga nisbatan |
|-----------|----------------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| 2020- yil | 100,8 | 101,6 | |
| 2021- yil | 100,9 | 102,6 | 109,0 |
| 2022- yil | 100,7 | 102,1 | 109,9 |
| 2023- yil | 101,5 | 101,8 | 110,7 |


Aroq




Vino



Konyak




Pivo




TAMAKI MAHSULOTLARI

| mart | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning martiga nisbatan |
|-----------|----------------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| 2020- yil | 104,1 | 104,1 | |
| 2021- yil | 100,8 | 105,9 | 113,4 |
| 2022- yil | 101,0 | 102,0 | 108,1 |
| 2023- yil | 100,8 | 102,1 | 110,0 |

Sigaret






Boshqa tamaki mahsulotlari



o‘tgan oyga nisbatan o‘tgan yilning dekabriga nisbatan o‘tgan yilning martiga nisbatan

“KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III), % DA

MART




○ o'tgan oyga nisbatan ● o'tgan yilning dekabriga nisbatan □ o'tgan yilning martiga nisbatan

| o'tgan oyga nisbatan | | | | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | | | | o'tgan yilning martiga nisbatan | | |
|--|----------|----------|----------|-----------------------------------|----------|----------|----------|---------------------------------|----------|----------|
| 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
| KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR | | | | | | | | | | |
| 100,8 | 100,4 | 100,2 | 100,0 | 102,0 | 100,9 | 101,9 | 100,7 | 107,9 | 105,7 | 108,8 |
| USTKI KIYIM | | | | | | | | | | |
| 100,9 | 100,3 | 100,1 | 100,1 | 102,0 | 101,0 | 101,7 | 100,9 | 107,7 | 106,4 | 108,4 |
| BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA | | | | | | | | | | |
| 100,3 | 100,3 | 100,1 | 99,9 | 101,7 | 100,9 | 101,3 | 100,7 | 106,3 | 105,7 | 107,4 |
| KIYIMLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH | | | | | | | | | | |
| 101,0 | 100,9 | 100,6 | 101,8 | 103,1 | 102,4 | 102,7 | 103,4 | 110,9 | 112,0 | 114,4 |
| BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR | | | | | | | | | | |
| 100,7 | 100,3 | 100,1 | 100,0 | 101,8 | 100,9 | 101,9 | 100,8 | 105,6 | 105,5 | 108,3 |
| POYABZALLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH VA IJARAGA BERISH | | | | | | | | | | |
| 101,4 | 101,0 | 100,3 | 102,4 | 105,6 | 103,3 | 102,7 | 105,2 | 117,9 | 112,2 | 118,0 |

Joriy yilning martida “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limida INI tebranishlari **98,4 %** dan (mo‘ynali ayollar qalpoqlari hamda erkaklar etik va botinkalari) **104,2 %** gacha (kiyimlarni ijaraga berish) atrofida joylashdi.


“TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV), % DA

TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*






*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan




TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



mart

o‘tgan oygga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning martiga nisbatan

“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limida turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar bo‘yicha joriy yilning martida qisqa muddatli INI **101,6 %** tashkil etdi. Ushbu guruhga kiruvchi


tovarlar bo‘yicha INI o‘zgarishlari diapazoni **100,3 %** dan (metal quvurlar, otvodlar, sgonlar, muftalar) **102,6 %** gacha (sement) oraliqda joylashdi.

Asosiy turdagi kommunal xizmatlar narxi oy davomida barqaror darajada saqlanib qoldi.


“UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V), % DA

mart


MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




MAISHIY PRIBORLAR




KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR




UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



■ o'tgan oyga nisbatan ■ o'tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o'tgan yilning martiga nisbatan




2023- yilning martida “Mebel va uy-ro‘zg‘or asboblari” guruhida INI tebranishlari yuqori chegarasi **102,5 %** ga yetdi (mebellarni ta‘mirlash va o‘rnatish, uy-ro‘zg‘or buyumlari va tukli gilamlar). “Maishiy asboblari” guruhida INI tebranishlari diapazoni **99,9 %** dan (sharbat tayyorlagich) **102,1 %** gachani (maishiy asboblarni ijaraga berish) tashkil etdi. Kundalik turmushda va bog‘dorchilikda ishlatiladigan asboblari va moslamalar bo‘yicha qisqa muddatli INI yuqori chegarasi oy davomida **102,2 %** darajasida (lopatalar, ketmon, panshax) qayd etildi. “Uy xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq holda ishlatiluvchi tovarlar va xizmatlar” guruhida dezinfeksiya va zararkunandalarni yo‘qotish xizmatlari narxida pasayish qayd etildi (narx indeksi **99,4 %**). Oshxona anjomlari va uy-ro‘zg‘or buyumlari INI oy davomida **101,1 %** ni, oshxona va hammomlar uchun materiallar INI **101,3 %** ni tashkil etdi.

mart o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning martiga nisbatan




DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI






AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



Dori vositalari INI 2023- yilning martida **101,8 %** ni, ambulatoriya stomatologik xizmatlar bo‘yicha **101,1 %** ni, ambulatoriyada davolash bo‘yicha boshqa xizmatlar bo‘yicha **101,4 %** ni, statsionar rehabilitatsiya xizmatlari bo‘yicha **101,3 %** ni, diagnostika vizualizatsiyasi va tibbiy laboratoriyalar xizmatlari bo‘yicha **99,8 %** ni tashkil etdi.


mart

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning martiga nisbatan


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2023- yilning martida benzin va propan narxlarida pasayish qayd etildi.

Benzinning qisqa muddatli INI **98,5 %** darajasida, propanda esa **99,5 %** ni tashkil etdi.


Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari bo‘yicha o‘tgan oyga nisbatan INI **99,8 %** ni, temir yo‘l transportida **100,4 %** ni, havo transportida **100,3 %** ni tashkil etdi.

Ma‘lumot uchun: respublika-niing beshta hududida, taksi xizmatlarida qishki mavsumdagi o‘shidan so‘ng mart oyida pasayish (**3,6-25 %** atrofida) qayd etildi.



mart

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



Axborot va kommunikatsiya uskunalari INI joriy yilning martida **100,4 %** ni tashkil etib, 2021-2022- yillarning mos oyidagi ko‘rsatkichga nisbatan past, biroq 2020- yilning martidagiga nisbatan baland bo‘ldi.

Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,1 %** dan (noutbuk) **101,0 %** gacha (periferik uskunalar va ularning sarflash komponentlari) chegarada joylashdi.

2022- yilning martiga nisbatan guruhdagi INI **105,0 %** ni tashkil etib, so‘nggi uch yilning mart oyi uchun eng past ko‘rsatkich bo‘ldi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR




Axborotlashtirish xizmatlari orasida joriy yilning martida narxlarning o‘shishi faqatgina axborot va kommunikatsiya uskunalarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarda qayd etilib, oylik INI **103,1%** ni tashkil etdi.

mart


“Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limida 2023- yilning mart oyida INI o‘tgan oyga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etdi. Bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,9 %** dan (muzeylar xizmatlari) **114,5 %** gacha (hayvonot bog‘lari xizmatlari) oraliqda joylashdi. Shu bilan birga, hayvonot bog‘lari xizmati faqatgina Andijon viloyatida, o‘rtacha 5 100 so‘mga o‘sganligi kuzatildi.




DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI VA UY HAYVONLARI



GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



■ o‘tgan oyga nisbatan ■ o‘tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o‘tgan yilning martiga nisbatan

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

| mart | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|-----------------------------------|----------|----------|----------|----------|
| o‘tgan oyga nisbatan | 100,0 | 100,2 | 100,1 | 99,8 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 100,0 | 100,2 | 100,2 | 97,7 |
| o‘tgan yilning martiga nisbatan | | 115,5 | 113,3 | 98,5 |



2023- yilning martida respublika-ni to‘rtta hududida (Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida) xususiy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xizmatlari uchun to‘lovlar qiymatida pasayish (1,1-10,9 % atrofida) qayd etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Toshkent viloyatida aksincha to‘lov qiymati oshirilgan. Ushbu xizmat bo‘yicha INI respublika bo‘yicha o‘rtacha **99,3** % ni tashkil etdi.

OLIY TA’LIM

| mart | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|-----------------------------------|----------|----------|----------|----------|
| o‘tgan oyga nisbatan | 105,2 | 100,0 | 100,0 | 100,1 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 105,2 | 100,0 | 100,0 | 100,1 |
| o‘tgan yilning martiga nisbatan | | 95,9 | 109,8 | 102,3 |

Bundan tashqari, qator hududlarda repetitorlar hamda ta‘lim kurslarida o‘qitish xizmatlari uchun to‘lovlar qiymatida pasayish qayd etildi. Ushbu xizmat turlari bo‘yicha qisqa muddatli INI mos ravishda **98,7** % va **99,6** % ni tashkil etdi.


BOSQICHLARGA BO‘LINMAGAN TA’LIM

| mart | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|-----------------------------------|----------|----------|----------|----------|
| o‘tgan oyga nisbatan | 100,7 | 100,5 | 100,4 | 99,2 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 101,2 | 102,5 | 101,7 | 100,3 |
| o‘tgan yilning martiga nisbatan | | 107,6 | 111,5 | 108,4 |


“RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI), % DA

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR


mart oyida o‘tgan oyga nisbatan






mart oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




mart oyida o‘tgan yilning martiga nisbatan



MEHMONXONALAR XIZMATLARI



Joriy yilning martida umumiy ovqatlanish sohasida INI **102,9 %** ni tashkil etdi. Kafe, oshxona va tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalaridagi tayyor taomlar bo‘yicha qisqa muddatli INI **102,8-103,0 %** atrofida shakllandi.



2023- yilning martida respublikaning beshta hududida mehmonxonalar xizmatlari narxlarida o‘shish kuzatildi. Umuman olganda, ushbu xizmat bo‘yicha oylik INI respublika bo‘yicha **101,5 %** darajasida qayd etildi.

Dam olish markazlari va sanatoriylar xizmatlari bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning martida **100,7%** ni tashkil etdi.

“SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII), % DA

SUG‘URTA



| mart | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning martiga nisbatan |
|-----------|----------------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| 2020- yil | 100,0 | 100,0 | |
| 2021- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| 2022- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| 2023- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

MOLIYAVIY XIZMATLAR



| mart | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning martiga nisbatan |
|-----------|----------------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| 2020- yil | 100,0 | 100,0 | |
| 2021- yil | 100,0 | 101,3 | 108,2 |
| 2022- yil | 101,5 | 101,5 | 101,0 |
| 2023- yil | 100,2 | 100,3 | 107,7 |

Joriy yilning martida kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozorida narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida narxlarning sezilarsiz tebranishlari bank orqali pul mablag‘larini o‘tkazish xizmatlarida qayd etildi.

Ushbu xizmat turi bo‘yicha INI oy davomida **100,8 %** ni tashkil etdi. Bu holat milly valyutaning AQSH dollariga nisbatan kursi tebranishlari va buning natijasida xorijiy valyutada pul mablag‘larini o‘tkazish uchun komission yig‘imlarning o‘zgarishlari bilan bog‘liq.

“MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % DA

mart

MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR



Shaxsiy foydalanish uchun elektr priborlari bo‘yicha INI oy davomida **100,5 %** ni, shaxsiy foydalanish uchun boshqa priborlar va tovarlar bo‘yicha **101,6 %** ni, sataroshxonalar va shaxsiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xizmatlari bo‘yicha **101,2 %** ni tashkil etdi.

SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning fevralida **99,9 %** dan (sumkalar, jumladan maktab ryukzaklari), **102,2 %** gacha (soatlarni ta‘mirlash) oraliqda joylashdi.

BOSHQA XIZMATLAR



Boshqa xizmatlar bo‘yicha 2023- yilning martidagi qisqa muddatli INI **101,5 %** ni tashkil etib, bu holat qator hududlarda diniy xizmatlar (INI respublika bo‘yicha o‘rtacha **102,8 %**) hamda nusxa ko‘chirish (kserokopiya) xizmatlari narxining oshishi (**101,5 %**) bilan bog‘liq.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta‘sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Narx indeksi salmog‘i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:


- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

o‘tgan oyga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH
SUR‘ATIGA TA‘SIRI, f.d.



Ja‘mi ta‘siri +1,01 f.d.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA‘SIRI, f.d.



Jami ta‘siri +2,39 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o‘zgarishining joriy yil mart oyidagi qisqa muddatli yig‘ma INI o‘sinh sur‘atiga ta‘siri **+0,63 f.d.** ni tashkil etdi. Bo‘lim hissasiga kuzatiladigan barcha Tovarlar va xizmatlar umumiy ta‘sirining 62 % idan ortig‘i to‘g‘ri keldi. Ta‘lim sohasida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, uning hisobiga yig‘ma INI **0,01 f.d.** pasaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hisobiga 2023- yilning I choragidagi yig‘ma INI **1,39 f.d.** o‘ydi, transport va sog‘liqni saqlash sohalaridagi narxlar o‘zgarishi yig‘ma ko‘rsatkichga **0,42 f.d.** qo‘shdi. Boshqa bo‘limlarning ta‘siri past darajada bo‘ldi.

2023- YIL MART OYIDA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA‘SIRI, F.D.

o‘tgan yilning martiga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH
SUR‘ATIGA TA‘SIRI, f.d.

UMUMIY TA‘SIR
DARAJASIDAGI ULUSHI, % da

| | | |
|---|------|------|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar | 5,72 | 49,1 |
| Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari | 0,10 | 0,9 |
| Kiyim va poyabzal | 0,99 | 8,5 |
| Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari | 0,52 | 4,4 |
| Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish | 0,82 | 7,0 |
| Sog‘liqni saqlash | 1,07 | 9,2 |
| Transport | 0,92 | 7,9 |
| Axborot va aloqa | 0,04 | 0,3 |
| Dam olish, sport va madaniyat | 0,33 | 2,8 |
| Ta‘lim | 0,07 | 0,6 |
| Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari | 0,44 | 3,8 |
| Sug‘urta va moliyaviy xizmatlar | 0,02 | 0,2 |
| Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar | 0,62 | 5,3 |

Jami ta‘siri +11,66 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari tebranishi hisobiga 2023- yilning martida yillik nisbatdagi yig‘ma INI umumiy **11,66 f.d.** o‘sinh sur‘atiga **5,71 f.d.** ta‘sir etdi. Shu tariqa, ushbu bo‘lim hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta‘sirining **50 %** idan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

Boshqa bo‘limlardagi narx o‘zgarishlarining jami ta‘siri **5,95 f.d.**, yoki **49,8 %** ni tashkil etdi.



Narxlar statistikasi boshqarmasi,
tel.: +99871 202-80-36, 202-81-74